



**Turkic
World**



Мемлекет тарихы
институты



Жас тарихшылардың
республикалық қауымдастығы



ҚАЗАҚСТАН ЖӘНЕ ТҮРКІ ӘЛЕМІ:

қоғамдық ғылымдар саласындағы
өзекті мәселелер

KAZAKHSTAN AND THE TURKIC WORLD:

actual problems in the field
of social sciences





**ҚР ҒЫЛЫМ КОМИТЕТІ МЕМЛЕКЕТ ТАРИХЫ ИНСТИТУТЫ
ЖАС ТАРИХШЫЛАРДЫҢ РЕСПУБЛИКАЛЫҚ ҚАУЫМДАСТЫҒЫ**

**«Қазақстан және Түркі әлемі:
қоғамдық ғылымдар саласындағы өзекті мәселелер»
халықаралық онлайн симпозиум материалдарының
ЖИНАҒЫ**

COLLECTION

**of materials of the international online symposium
«Kazakhstan and the Turkic world: actual problems in
the field of social sciences»**

Нұр-Сұлтан, 2021

УДК 327
ББК 66.4
Қ 18

*Қазақстан Республикасы Білім және ғылым министрлігі
Ғылым комитеті Мемлекет тарихы институтының Ғылыми кеңесі ұсынған.*

Бас редактор

Мемлекет тарихы институтының директоры,
тарих ғылымдарының докторы, профессор *Е.А. Әбіл*

Құрастырушылар:

*Қ.Б. Әдиет, Ж.Н. Жақсыгелдинов, Д.А. Жұмағалиев,
Б.Ш. Ыдырысов, Ә.М. Бәдиев, А.Сатанов*

Қазақстан және Түркі әлемі: қоғамдық ғылымдар саласындағы өзекті мәселелер. Халықаралық онлайн симпозиум материалдары. 24 сәуір 2021 жыл. – Нұр-Сұлтан, 2021. – 456 бет.

ISBN 978-601-08-0831-7

Жинаққа Түркі әлемінің тіл, әдебиет, тарих, мәдениет, өнер, халықаралық қатынастар және саясат, рухани құндылықтары мен экономикалық мәселелері жаңаша зерделеуге арналған түркі әлемінің жас ғалымдары мен зерттеушілерінің мақалалары енгізілген.

Симпозиум материалдары Түркі әлемінің ортақ әдеби мұрасын насихаттау мен қатар қазіргі түркі халықтары әдебиеттерінің ортақ тұстары мен ерекшеліктерін анықтау, қазіргі түркі мемлекеттері арасындағы саяси, экономикалық, әлеуметтік-мәдени, білім беру және ғылыми қарым-қатынастарын еларалық байланыстар және көпжақты байланыстардың дамуындағы проблемалар мен олардың шешімдерін, сондай-ақ Қазақстанның халықаралық бастамалары мен атқарған іс-шараларын көрсетуге арналған.

Жинақ көпжақты қарым-қатынас, түркі мемлекеттерінің ынтымақтастығы мәселелерімен шұғылданатын ғылыми қызметкер-мамандарға, сонымен қатар студент, магистрант, докторант жастарға, жалпы тақырыпқа қызығатын барша оқырмандарға арналады.

ISBN 978-601-08-0831-7

УДК 327
ББК 66.4

© Мемлекет тарихы институты, 2021
© Жас тарихшылардың республикалық қауымдастығы

<i>Kozimjon Olimov,</i> Markaziy Osiyo dinlari evolyutsiyasi.....	275
<i>Фатимат Полчаева,</i> Роль Золотой Орды в развитии политических институтов государств Дагестана.....	278
<i>Mukhiddinjon Primov,</i> Ўрта Осиё республикалари картографиясини ривожлантиришда Тошкент картография фабрикасининг ўрни.....	281
<i>Bayram Quliyev,</i> The technical and natural science in period of Ilkhanates.....	286
<i>Oybek Rajabov,</i> Mahmud Torobiy qal'asi tarixi.....	291
<i>Shokhjahan Rashidov,</i> From the history of local administration of the Uzbek SSR (50s of the XX century).....	295
<i>Азизбек Сапарниязов,</i> Известная экспедиция: метод расширения империи и дорога к несметным богатствам.....	298
<i>Фаррух Темиров,</i> Садриддин айний илмий меросининг жаҳон илм-фани тараққиётидаги ўрни.....	303
<i>Феруза Ўтаева,</i> Манғит ҳуқумдорларининг фаолияти ва шахсияти мустақиллик йилларидаги даврий матбуот талқинида.....	310
<i>Мадияр Утебаев,</i> Этикет супругов в системе внутрисемейного стереотипного отношения у каракалпаков.....	316
<i>Qudratjon Hakimjonov,</i> Katta Farg'ona kanalining qisqacha tarixi.....	323
<i>Талъат Ҳалимов,</i> Ashtarxoniyalar va Boburiylarning siyosiy munosabatlari.....	325
<i>Шамсиева З.А.,</i> Манбаларда Бухоро воҳаси этник тарихи ва этногенези масалалари.....	328
<i>Вазира Шодыева,</i> Об истории формирования корейской диаспоры в Приаралье (к примеру Республика Узбекистан и Казахстан).....	334

Katta Farg`ona kanali qurulishida asosiy ishchi kuchlaridan tashqari, 204 ta trag`ibot maskani, 78 ta radio tarmog`i, 28 ta kutubxona, 2918 nafar targ`ibotchi, 704 nafar tibbiyot xodimi, 1890 nafar sanatkori, 1072 nafar aloqachi, shuningdek ko`plab ziyolilar, yozuvchi hamda boshqa kasb egalarining xissalari beqiyos bo`lgan. Kanal qurilishi boshlangan yilning birinchi avgust kuni hasharchilar juda katta bayram kabi karnay – surnay navolari ostida ko`tarinki rux va kayfiyatda ish boshlaganlar.⁴

O`sha davrning mashhur san`atkorlari Tamaraxonim, Xalima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Gavhar Rahimova va boshqalar ham xalol mehnat qilayotgan hasharchilarga madaniy xizmat ko`rsatish bilan qo`llab quvvatlab turishgan.

Katta mehnat g`alabasi bilan yakunlangan, bir yoqadan bosh chiqargan xalq hashari samarasi bo`lgan Katta Farg`ona kanali Farg`ona bodiysi aholisining turmush tarzini yuksalishiga muxim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa yurtimizning bog` - rog`larini gullatayotgan, elimiz dasturxonini to`kin bo`lishi uchun hosildor yerlarni suv bilan taminlayotgan Katta Farg`ona kanali O`zbek xalqining ma`nodagi milliy boyligiga aylangan.⁵

ASHTARXONIYLAR VA BOBURIYLARNING SIYOSIY MUNOSABATLARI

Ҳалимов Талъат Тўраевич,

*Бухарский государственный университет,
преподаватель (Республика Узбекистан)*

Annotsiya: *ushbu maqolada Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi va Hindistondagi Boburiylar sulolasi o`rtasidagi siyosiy munosabatlar manbalar asosida ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so`zlar: *diplomatiya, elchilik, siyosiy aloqa, xonlik, Boburiylar, savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalar.*

POLITICAL RELATIONS OF ASHTARKHANIDS AND BABUR'S DYNASTY

Annotation: *This article provides a scientific analysis of the political relations between the Bukhara Khanate and the Babur's dynasty in India during the Ashtarkhanid government.*

Key words: *diplomacy, embassy, political relations, khanate, Babur's dynasty, trade, economic relations.*

Har qanday davlat o`z mavqeiini mustahkamlash va jahon siyosiy hayotida o`z o`rniga ega bo`lish uchun siyosiy ittifoqdoshlikdan manfaatdor ekanligi tarixdan ma`lum. Shu sabab azal-azaldan hukmdorlar o`z davrining buyuk davlatlari bilan elchilik, savdo-

⁴ Katta Farg`ona kanali trassasida / Kommuna . -1961.-№ 16.-B.4.

⁵ Katta Farg`ona kanali yana kengaydi / Kommuna . - 1961.-№ 5.-B.1.

iqtisodiy va siyosiy aloqalarni o'rnatishga intilganlar. O'rta Osiyo xalqlari ham o'zining mingyillik tarixi davomida juda ko'p qo'shni xalqlar bilan madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni olib borganlar. Boy qadimiy tarixga ega bo'lgan Hindiston mana shular jumlasidandir. XVII asrda O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, ashtarxoniyalar davlati ham Hindistondagi boburiylar imperiyasi bilan iliq siyosiy munosabatlarni o'rnatishdan manfaatdor edi. Shayboniylar davrida anchayin jonlangan o'zaro elchilik aloqalari ashtarxoniyalar davrida ham davom etdi.

Ashtarxoniy hukmdor Imomqulixon (1611-1642) taxtga o'tirgach, o'g'li Iskandarni Toshkent hokimi etib tayinlaydi. Tez orada Iskandar zulmiga qarshi toshkentliklar isyon ko'taradi va Iskandar o'ldiriladi. Bundan g'azablangan Imomqulixon Balx hokimi ukasi Nadr Muhammadxon bilan birgalikda Toshkentga yurish qilib, 1613-yilda qo'zg'olonni ayovsizlik bilan bostiradi. Shundan so'ng, Buxoroga qaytib kelib, Hindiston shohi Jahongir (1605-1627) huzuriga elchilar yuboradi. Elchilar Hindistonga qimmatbaho sovg'a va tuhfa bilan boradilar. Jahongirshoh ham ularni iliqlik bilan kutib oladi.

Hind tarixchisi R.Ch.Varmaning yozishicha, Buxoro elchilari Imomqulixonning Jahongir nomiga yozilgan maktubini olib kelganlar va bu maktubda Buxoro xoni marhum Abdullaxon II va boburiy Akbarshoh davrlarida Buxoro hamda Hindiston o'rtasida bir diniy mazhabda bo'lish asosida o'zaro ittifoq tuzilganligi va bu ittifoq natijasida Xuroson va Eronning ko'p joylari Hindiston va Buxoro tomonidan bosib olinganligi qayd qilib o'tilgan.

“Tarixi Muqimxoniy”ga ko'ra, Jahongirshoh 1625-yili Buxoroga Hakim Hoziqni elchilik rasmi bilan oliy maqom xon (Imomqulixon) huzuriga yuboradi. Ammo Imomqulixon elchilari 1613-yilda uzatilganligini hisobga olsak, Hakim Hoziq elchiligi oradan o'n yildan ko'proq vaqt o'tgach kelganligi ko'rinadi. Ikki o'rtadagi elchilik munosabati buncha uzoq vaqt uzilib qolishi mumkin emas edi. Manbalarning ko'rsatishicha, Hakim Hoziq elchiligidan avvalroq, Hindistondan Buxoroga Birka elchiligi kelgan va ular Buxoroda ancha vaqt turgach, vatanlariga qaytganlar.

Shundan keyin, Buxorodan Hindistonga Xo'ja Islom Jo'yboriyning nabiralaridan biri bo'lmish Xo'ja Abdurahim boshchiligida elchilar yuboriladi.

“Matlabut-tolibin” asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Xo'ja Abdurahimning Hindistonga borishiga Jahongirshoh va o'g'li Xurramshoh (Shoh Jahon) o'rtasidagi ziddiyatlar sabab bo'lgan. Ushbu kelishmovchiliklar haqidagi xabarlar Buxoroga yetib kelgach, Xo'ja Abdurahim Imomqulixonga shu haqda gap ochib, ota-bolani yarashtirib qo'yish kerakligini aytadi. Imomqulixon esa, bu Jo'yboriy shayxlarning ishi ekanligini aytib, uni Hindiston safariga uzatishga yordam beradi. Bir qancha qimmatbaho sovg'alarni olib, safar tadorigini ko'rgach, katta o'g'li Muhammad Siddiqxo'ja unga hamrohlik qiladi. Hindistonga yetib kelgach, qabul marosimida Jahongirshoh Abdurahimga 50 ming rupiya in'om etadi.

Hind tarixchisi Banarsi Prasad Saksenaning fikricha, Hindistonga elchilik vazifasi bilan kelgan Xo'ja Abdurahim Buxoro xonining Xurosonni Hindiston va Buxoro o'rtasida bo'lib olish haqidagi taklifini ham bayon qilgan va Jahongirshohning vafoti munosabati bilan bu taklif amalga oshmay qolgan.

Demak, B.P.Saksenaning ma'lumotlariga ko'ra, Xo'ja Abdurahim Buxoro xonining Hindistonga yuborgan rasmiy elchisi bo'lgan. Shunday bo'lishi ham mumkin. Chunki Jahongirning o'g'li Shoh Jahon va boshqalarning tinimsiz qo'zg'olonlari natijasida Hindistonning kuchsizlanib borayotganini sezgan Imomqulixon bu qulay vaziyatdan foydalanib, o'zini Hindistonning ichki ishlariga ham aralasha oladigan ulug' hoqon qilib ko'rsatishga harakat qilgan bo'lishi mumkin. Xo'ja Abdurahim uchun ham hind shohi huzuriga oddiy shaxs emas, balki davlat elchisi sifatida kelish qulay va foydali edi.

Shuningdek, "Tuzuki Jahongiriy"da Xo'ja Abdurahim Imomqulixonning Jahongirshoh nomiga yozilgan maktubini keltirgan, deb yozadi. Ammo "Tuzuki Jahongiriy"da hamda Xo'ja Abdurahimning Hindistonga qilgan sayohatini batafsil hikoya qiluvchi "Matlabut-tolibin"da (shuningdek boshqa asarlarda) ham bu maktub yoki uning qisqacha mazmuni haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi.

Tarixiy asarlarda Imomqulixonning onasi va Jahongirshohning xotini Nurjahonbegim ham (o'z vakillari orqali) bir-birlariga do'stona maktublar va qimmatbaho tuhfa hamda hadyalar yuborib turganliklari haqida ma'lumotlar bor [Низомиддинов, 1966.].

Shunday qilib, Hakim Hoziq elchiligiga qadar Hindistondan Buxoroga Birka va Nurjahonbegimning vakili Xo'ja Nasriddin Kobiliy boshchiligida elchilari kelgan bo'lsa, Buxorodan Hindistonga Xo'ja Abdurahim va Imomqulixon onasining elchilari borgan.

Hakim Hoziq elchiligi to'g'risida "Tarixi Muqimxoniy"dagi ma'lumotlarga kel-sak, bu yerda biroz xronologik chalkashlik mavjudligini ko'ramiz. Ma'lumki, bu asarda Hakim Hoziq Jahongirshoh elchisi sifatida qayd etiladi. Ammo «Matlabut-tolibin» va «Mirotul olam» asarlarida Hakim Hoziq Shoh Jahonning Buxoroga yuborgan dastlabki elchisi ekanligi qayd etib o'tiladi. Bu asarlarda keltirilishicha, Xo'ja Abdurahim elchiligi hali Hindistonda bo'lganida u Jahongirshoh bilan birga Kashmir safariga chiqadi va o'sha yerda 1627-yilda ular ikkalasi ham vafot etadi. Shundan so'ng, Shoh Jahon Imomqulixon shaxsi ulug'langan maktubi bilan Hakim Hoziqni ashtarxoniyalar davlatiga uzatgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Imomqulixon ushbu elchilikni deyarli olti oy davomida qabul qilmagan. Hakim Hoziq bundan ranjib, Buxoro amirlariga shikoyat qiladi va Nodir Devonbegining iltimosiga ko'ra, Imomqulixon u bilan ko'rishishga rozi bo'lgan. Bunga sabab sifatida Imomqulixonning «agar men elchini qabul qilsam, u holda u keltirgan sovg'alarni ham qabul qilishimga to'g'ri keladi. Ammo biz iltifotlarga muhtoj emasmiz» qabilidagi so'zlari keltiriladi. Muhammad Yusuf Munshiy bergan ma'lumotga ko'ra, Imomqulixon Hakim Hoziqni ovdan qaytish chog'ida yo'lda kutib oladi va u keltirgan sovg'a-salomlarni Rahim parvonachiga tortiq qilib yuboradi. Hakim Hoziq sovg'alar orasidan bir qilichni asrab qoladi va shoh qabuliga rasmiy tashrif bilan kirganida uni Akbarshohning xususiy qilichi ekanligi va Shoh Jahon tinchlik ramzi sifatida tortiq qilganligini aytgan.[2, c. 90]

Hakim Hoziqning shuncha davr mobaynida sabr bilan kutganligi va chuqur diplomatiya bilan ish ko'rish ham bejizga emas edi. Ayni davrda Hindistondagi ichki ahvolning nihoyatda mushkullashganligi, Eron bilan munosabatning keskinlashishi va Qobuldagi notinchliklar Shoh Jahonga Imomqulixon bilan do'stona munosabatda bo'lishni

va siyosiy ittifoqdoshlik o'rnatishni taqozo qilardi. Shunga ko'ra, hind elchiligining katta miqdordagi sovg'alari olib kelishi va elchilikka boshchilik qilish vazifasi o'z davrining donishmandi Hakim Hoziqqa yuklatilgan edi.

XVII asrda ashtarxoniylar va boburiylar o'rtasida amalga oshirilgan elchilik aloqalarida siyosiy manfaat ustunlik qilganligini ko'rish mumkin. Chunki notinch bu jarayonda ularning har ikkisi ham siyosiy ittifoqdoshga muhtoj edi. Yuqoridagi kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, XVI asrda bir qadar rivojlangan munosabatlar butkul to'xtab qolmadi va yangi madaniy va iqtisodiy aloqalarga zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR:

1. Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII asrlarda Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари. “Фан”, Ташкент, 1966.
2. Мухаммед Юсуф Мунши, Муқим-ханская история. Ташкент, 1956.

МАНБАЛАРДА БУХОРО ВОҲАСИ ЭТНИК ТАРИХИ ВА ЭТНОГЕНЕЗИ МАСАЛАЛАРИ

Шамсиева З.А.,

*БухДУ “Бухоро тарихи” кафедраси ўқитувчиси
(Ўзбекистон Республикаси)*

Аннотация: Ушбу мақолада Бухоро воҳаси этник тарихи, Бухоро воҳасида истиқомат қилган уруғлар ва ушбу уруғлар ҳақида маълумот берувчи тарихий-этнографик манбалар хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: этник тарих, этногенезис, Мангит, Кўнғирот, Олчин, Жалоир, Кенагас, Бахрин.

THE ISSUES OF THE ETHIC HISTORY AND ETHNOGENESIS OF BUKHARIAN OASIS IN THE HISTORICAL RECOURSES

Annotation: Given is the article analyzing the historical resources which give information on the ethic history and ethnogenesis of Bukharian oasis.

Keywords: ethic history, ethnogenesis, Mangit, Kungrad, Olchin, Jaloir, Kenagas, Bakhrin

Тарих фанидаги мавжуд илмий ишланмага кўра, ҳар бир халқнинг келиб чиқиш тарихи икки босқичдан иборат бўлади. Биринчи босқич – этногенез, иккинчи босқич – этник тарихдан иборат. Халқ тарихининг этногенез қисми унинг элат, халқ бўлиб шаклланганига қадар бўлган даврни ўз ичига олади. Халқ этногенези жуда узоқ давом этадиган тарихий ва этномаданий жараён. Унинг ибтидоси қабила ва қабила иттифоқидан бошланади. Қачонким, айнан ўрганилаётган халқнинг эт-